

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

Buxoro davlat universiteti rektori

O.X.Xamidov

2025 yil “ ”

“RO‘YXATGA OLINDI”

№ 2025 yil “ ”

JAHON GEOGRAFIYASI

FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 500000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika

Ta’lim sohasi: 530000–Fizika va tabiiy fanlar oid fanlar

Ta’lim yo‘nalishi: 60530200 – Geografiya

Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi 300 talik ro‘yxatga kiruvchi Lomonosov Moscow State University (Russian Federation) (QS-94) ta’lim dasturi asosida tayyorlandi.

https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_G/b_G_fm_y_ok_2021.pdf

Buxoro – 2025

Fan/modul kodi JAGB-223		O'quv yili 2024-2025	Semestr 3,4	ECTS - Kreditlar 10	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Jahon geografiyasi	120	180	300	
2. 1. Fanning mazmuni					
Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga materik va okeanlarning vujudga kelishi, rivojlanishi, tuzilishi, tarkibiy qismlari, relyefi, iqlimi, suvlari, tuproqlari, o'simliklari va hayvonot dunyosi, landshaftlar, tabiiy komplekslar hosil bo'lishida ro'y beradigan hodisalar, jahon mamlakatlari va mintaqalarining iqtisodiy-geografik o'rni, aholisi, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish xususiyatlari, O'rta Osiyo mintaqasida "tabiat-aholi-xo'jalik" tizimi doirasida tabiiy-geografik, geoeologik, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarning rivojlanish qonuniyatlari va ularni boshqarish masalalariga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Fanning vazifasi - talabalarga umumiy tabiiy geografik qonuniyatlar, sabab va oqibat bog'lanishi orqali materiklar va okeanlardagi voqea va hodisalarni kelib chiqishi xususiyatlari, rivojlanish tarixi va inson ta'sirida o'zgarishlari, jahon mamlakatlarining sotsial-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra tiplari, jahon aholisi va uning joylashuv xususiyatlari, jahonning alohida mamlakatlari iqtisodiy geografik tavsifi; O'rta Osiyo tabiiy geografik o'lkasi rivojlanishining tabiiy-geografik qonuniyatlari, sabab-oqibatlari, geoeologik rivojlanish muammolari haqida, O'rta Osiyo davlatlarining umumjahon va regional miqyosda mehnat taqsimotida tutgan o'rnini baholash, mintaqa geosiyosiy vaziyati, iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy rivojlanish muammolari haqida nazariy va amaliy bilimlar berish. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: I qism. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi 1-mavzu. Kirish. Yer yuzasining rivojlanishi va shakllanishi. Yer va sayyoralarining kelib chiqishi haqidagi taxminlar (gipotezalar). Yer va sayyoralarining kelib chiqishi haqidagi tahminlar (gipotezalar). Litosfera plitalari va ularning harakatlari. Rift zonalar. Yer yuzasidagi asosiy relyef shakllari: geostruktura, geoskulptura haqida tushuncha. 2-mavzu. Yerda quyosh radiatsiyasining taqsimlanishi. Iqlim mintaqalari va ularning hosil bo'lishi. Quruqlikdagi tabiat zonalar.					

Quruqlikdagi tabiat zonalarining geografik mintaqalar bo'yicha ta'rifi.

Yerda quyosh radiatsiyasining taqsimlanishi. Radiatsiya va issiqlik balansi. Iqlim mintaqalari va ularning hosil bo'lishi. Yer yuzasining notekis isishi, past va yuqori bosim oblastlarining hosil bo'lishi, asosiy havo massalari, atmosfera havosining doimiy va mavsumiy harakatlari, past va yuqori bosim markazlari. Iqlim va vegetatsiya. Hidrotermik sharoit va biomassa miqdori haqida tushuncha. Bioxilma xillik. Okeandagi geografik mintaqalar va ularning quruqlikdagi geografik mintaqalar bilan o'xshashligi va tafovutlari. Sektorlik va uning hosil bo'lishi. Okeanbo'yi va ichki quruqlik sektorlari. Tabiat zonalar va ularning kelib chiqishi. quruqlikda geografik zonallikning namoyon bo'lishining umumsayyoraviy ko'rinishi (modeli). Iqlim o'zgarishi, Kioto protokoli.

Quruqlikdagi tabiat zonalarining geografik mintaqalar bo'yicha ta'rifi. Ekvatorial mintaq. Tabiat zonalar: doimiy yashil semam va nam o'rmonlar (gileya); doimiy yashil, bargini to'kadigan o'rmonlar. Subekvatorial mintaq. Tabiat zonalar: quruq savanna, siyrak o'rmon va butalar; nam va mo'tadil nam savanna va siyrak o'rmonlar; bargini to'kuvchi mo'tadil nam va quruq o'rmonlar; doimiy yashil yarimquruq o'rmon va butazorlar; nam va mo'tadil nam yashil o'rmonlar; nam va mo'tadil nam doimiy yashil o'rmonlar. Tropik mintaq. Tabiat zonalar: doimiy yashil nam o'rmonlar; yarim doimiy yashil mavsumiy nam o'rmonlar; savanna, siyrak o'rmon va butazorlar; chalocho'l; cho'l. Subtropik mintaq. Tabiat zonalar: o'tloq dasht va preriyalar; dasht; yozi nam siyrak o'rmon va butazorlar; cho'l; chala cho'l; o'rta dengiz bo'yi tipidagi o'rmon va butazorlar; yarim doimiy yashil keng bargli o'rmonlar; doimiy va yarim yashil aralash o'rmonlar, igna bargli o'rmonlar. Mo'tadil mintaq. Tabiat zonalar: chalocho'l va cho'l; cho'lcho'l; dasht; o'rmondasht va preriyalar; keng bargli o'rmonlar; aralash o'rmonlar; igna bargli o'rmonlar; okean bo'yi o'tloqlari va sirak o'rmonlar. Subarktika va subantraktika mintaqalari. Tabiat zonalar: tundra; o'rmon-tundra. Arktika va antraktika mintaqalari. Tabiat zonalar: muz saholari; tundra.

Balandlik mintaqalari. Hosil bo'lishining asosiy sabablari. Balandlik mintaqalarining joylashishidagi asosiy qonuniyatlar. Balandlik va kenglik mintaqalari orasidagi farqlar va o'xshashliklar, har bir geografik mintaqalardagi balandlik mintaqalarining ta'rifi.

Qutbiy nomutanosiblik (assimetriya) va geografik qobiq rivojlanishining davriyligi. Termik ekvator, subtropik maksimumlarning joylanishi. Geografik mintaqalarning 4-5° shimolga siljish sabablari. Davriylik.

Tabiat zonalarining shakllanish tarixi, ularning tabaqalanish sabablari. Bo'r davridan boshlab hozirgacha tabiat zonalarining rivojlanishi. Muz bosish davrlarida tabiat zonalarining joylashishdagi o'zgarishlar. Paleolit, mezolit, neolit, bronza, temir va hozirgi davrda insoniyatning tabiatga ta'siri.

Yer yuzasining inson tomonidan o'zlashtirilishi va tabiiy landshaftlarning o'zgarishi. Tabiatdan foydalanishda, uni muhofaza qilishda inson xo'jalik

faoliyatining ahamiyati. Madaniy landshaftlar. Landshaftlarni o'zgarish darajasiga qarab guruhlarga ajratish.

Yer yuzasini tabiiy geografik rayonlashtirish. Tipologik va individual-regional rayonlashtirish birliklari.

3-mavzu. Okeanlar tabiiy geografiyasi. Dunyo okeani tabiatining asosiy xususiyatlari. Dunyo okeanining regional birliklariga umumiy tabiiy geografik ta'rif.

Kirish. Okeanlar tabiiy geografiyasining maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan aloqasi. Dunyo okeani tushunchasi. Dunyo okeani tabiatining asosiy xususiyatlari.

Okeanning birlamchiligi, ikkilamchiligi va litosfera plitalari tektonika nazariyalari. Okean tagi relyefining asosiy shakllari, okean tagi yotqizilqlari.

Dunyo okeanining iqlimi va suv massalari. Iqlim hosil qiluvchi omillar. Doimiy va mavsumiy past va baland atmosfera bosimi markazlari, doimiy shamollar. Suvning sho'rli va harorati. Suv massalari va ularning harakati. Okeandagi hayot. Okean mavjudotlarining geologik faoliyati. Dunyo okeani biotsenozlari va biogeografik oblastlari.

Dunyo okeanining geografik mintaqalari. Suv yuzasidagi va okean tubidagi geografik mintaqalar. Okean tabiatini muhofaza qilish.

Regional birliklari: Tinch, Atlantika, Hind va SHimoliy Muz okeani. Okeanlarga umumiy tabiiy geografik ta'rif.

4-mavzu. Materiklar tabiiy geografiyasi. Yevrosiyo. Yevrosiyaning asosiy xususiyatlari. Yevrosiyaning geologik tuzilishi va relyefi.

Materiklar, qit'alar, orollar, yarimorollar, okeanlar, dengizlar, qo'ltiqlar va bo'g'ozlar haqida umumiy tushuncha. Yevrosiyaning asosiy xususiyatlari (maydonining kattaligi, shimoldan janubga cho'zilganligi va shimoliy yarim shardagi hamma geografik mintaqalarning namoyon bo'lganligi. YEvropa qit'asining geologik tuzilishi va relyefi. Osiyaning geologik tuzilishi va relyefi. Relyefi shakllarining xilma-xilligi.

5-mavzu. Yevrosiyo iqlimi, ichki suvlari. Yevrosiyo tuproqlari, o'simlik va hayvonot olami.

Yevrosiyaning iqlimi, iqlim hosil qiluvchi omillari. Iqlim mintaqalari va tabiat zonalari. Ichki suvlari (daryolari, ko'llari, er osti suvlari).

Yevrosiyotuproqlari, o'simlik va hayvonot olami. Geografik mintaqalari va tabiat zonalari. Yevrosiyoda o'simlik va hayvonot olamini muhofaza qilish masalalari.

6-mavzu. Yevropaning umumiy tabiiy geografik obzori. Yevropa regionlari.

Yevropaning umumiy tabiiy geografik obzori. Yevropaning yirik regional tabiiy geografik o'lkalari: Shimoliy Yevropa, Markaziy Yevropa, Janubiy Yevropa, Sharqiy Yevropa. Yirik regional tabiiy geografik o'lkalarning kichik tabiiy geografik o'lkalarga ajratilishi. Shimoliy Yevropa: Fennoskandiya, Islandiya, O'rta Yevropa yoki Germaniya-Polsha tekisliklari, Gersin Yevropasi

va Britaniya orollari tabiiy geografik o'lkalari. Har bir regional tabiiy geografik o'lkaning umumiy tabiiy geografik tasnifi: geografik o'rni, tektonikasi va geologik tuzilishi, foydali qazilmalari va relyefi, iqlimi, ichki suvlari, tuproqlari, o'simliklari va hayvonot dunyosi, tabiatiga inson faoliyatining ta'siri.

7-mavzu. Osiyaning umumiy tabiiy geografik obzori. Osiyo regionlari.

Osiyaning umumiy tabiiy geografik obzori. Osiyaning yirik regional tabiiy geografik o'lkalari: g'arbiy Sibir, SHarqiy Sibir, Uzoq SHarq, SHarqiy Osiyo, Janubi-SHarqiy Osiyo, Markaziy Osiyo, O'rta Osiyo, Janubiy Osiyo, Janubi-g'arbiy Osiyo, Old Osiyo. Yirik regional tabiiy geografik o'lkalarning kichik tabiiy geografik o'lkalarga ajratilishi. Har bir regional tabiiy geografik o'lkaning umumiy tabiiy geografik tasnifi: geografik o'rni, tektonikasi va geologik tuzilishi, foydali qazilmalari va relyefi, iqlimi, ichki suvlari, tuproqlari, o'simliklari va hayvonot dunyosi, tabiatiga inson faoliyatining ta'siri.

8-mavzu. Shimoliy Amerikaning geografik o'rni, geologik tuzilishi, relyefi, foydali qazilmalari, iqlimi va ichki suvlari, tuproqlari, organik dunyosi.

Tabiiy geografik xususiyatlari. SHakllanish tarixi. Materikning tarkib topishidagi asosiy bosqichlar. SHimoliy Amerika platformasi, kaledon, gersin, kimmeriy, laramiy va alp burmalanishi oblastlari va ularning relyefida aks etishi. Foydali qazilmalarini joylanish qonuniyatlari va ulardan foydalanish darajasi. To'rtlamchi davr muzliklarining relyefi shakllarini hosil bo'lishidagi ahamiyati. Asosiy relyefi shakllari.

Iqlimi. Iqlimini hosil qiluvchi omillar. Atrofidagi okeanlarning materik iqlimiga ta'siri. Iqlimni fasllar bo'yicha almashinishi. Iqlim mintaqalari va ularning ta'riflari. Ichki suvlari. Daryo turlari, yirik daryolar ta'riflari. Ko'llar va ularning kelib chiqishi. Suv resurslari.

O'simligi, tuproqlari va hayvonot dunyosi. O'simliklarining kelib chiqish markazlari va hozirgi o'simlik qoplamining shakllanish tarixi. Tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosining tarqalish qonuniyatlari. O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish masalalari. Milliy bog'lar, qo'riqxonalar va alohida qo'riqlanadigan joylar.

Geografik mintaqalar va tabiat zonalari, ularning joylanishining o'ziga xos xususiyatlari. Kordilera tog'laridagi balandlik mintaqalari. Landshaftlar va ularning inson tomonidan o'zlashtirilishi.

9-mavzu. Regional obzor. Shimoliy Amerika tabiiy geografik rayonlari.¹

¹ Mazkur mavzu xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi 300 talik ro'yxatga kiruvchi Lomonosov Moscow Stat eUniversity (Russian Federation) (QS-94) ta'lim dasturi asosida tayyorlandi.

Materik tabiatining Yevrosiyoga nisbatan asosiy xususiyatlari. Geologik tarixning eng muhim bosqichlari. Zonaning rivojlanishi Shimoliy Amerika va Tinch okean litosfera plitalari konvergentsiyasi. Hududning geostrukturaviy tuzilishi. Tuzilishi Kanada-Grenlandiya qalqoni va Shimoliy Amerika platformasi plitalari.

Reliefi. Morfostruktura platformnaya ravnin Vnekordilyarskogo Vostoka. Kaledon va gersin burmalı strukturalari Appalachi, Kanada Arktika arxipelagi va Grenlandiya tog' tizmalarining epiplatformalarida tarqalgan. Relifning yosharish jarayonlarining ta'siri va tog' jinslarining litologik tarkibi tog'li hududlarning morfokulturnaviy tuzilishiga ta'sir ko'rsatadi. Mezozoy va karnozoy strukturalari Kordilera va Karib havzasi orollar. Kordilera yirik morfostruktura mintaqalari relyefining o'ziga xos xususiyatlari: sharqiy tog', ichki plato va yassi tog'liklar, g'arbiy tog' mintaqalari.

Materikning paleogeografik rivojlanish tarixi. Pleystotsen muzlashi va uning materik tabiatining shakllanishida. Foydali qazilmalar, ularning geologik tuzilishi bilan bog'liqligi Iqlimning shakllanish omillari. Havo massalarining yil fasllari bo'yicha aylanishi. Materikning yirik oblastlari bo'yicha termik rejim. Namlanish rejimi va yog'inlarning yillik o'zgarishi. Iqlim mintaqalari va iqlim tiplari.

Ichki suvlar. Daryolar suv rejimining turlari. Mississippi daryosi. Buyuk ko'llar: havzalarning kelib chiqishi, suv havzalarining xususiyatlari rejimi Daryolarning energetik potentsiali va transport ahamiyati. Suv resurslaridan xo'jalikda foydalanish. Geografik mintaqalar va tabiat zonalari. Okeanlar, atmosfera aylanishi va orografiyaning joylashuvi va tuzilishiga ta'siri Vnekordilyarskogo Vostoka. Arktika, subarktika, mo'tadil, subtropik, tropik va subekvatorial mintaqalarda tarqalgan. Zamonaviy landshaftlarning tuzilishi. Kordilerlar: umumiy xususiyatlari va mintaqaviy farqlar. Alyaska Kordileralari. Kanada Kordileralari. AQSH Kordileralari. Meksika tog'ligi.

Тема 9. Северная Америка

Основные особенности природы материка в сравнении с Евразией. Важнейшие этапы геологической истории. Развитие зоны конвергенции Североамериканской и Тихоокеанской литосферных плит. Геоструктурное устройство территории. Строение Канадского Гренландского щита и плиты Североамериканской платформы. Рельеф. Морфоструктуры платформенных равнин Вnekordильерского Востока. Каледонские и герцинские складчатые структуры эпиplatformенных горных систем Аппалачей, Канадского Арктического архипелага и Гренландии. Влияние процессов омоложения рельефа и литологического состава пород на морфокультурное строение горных областей.

https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_G/b_G_fgm_y_ok_2021.pdf

Мезозойские и кайнозойские структуры Кордильер и островов Карибского бассейна. Особенности рельефа крупных морфоструктурных поясов Кордильер: восточного горного, внутренних плато и плоскогорий, западного горного поясов. Палеогеографическая история развития материка. Плейстоценовое оледенение и его роль в формировании природы материка. Полезные ископаемые, их связь с геологическим строением. Факторы формирования климата. Циркуляция воздушных масс по сезонам года. Термический режим по крупным областям материка. Режим увлажнения и годовой ход осадков. Климатические пояса и типы климата. Типовые климатограммы. Внутренние воды. Типы водного режима рек. Река Миссисипи. Великие озера: происхождение котловины, особенности водного режима. Энергетический потенциал и транспортное значение рек. Хозяйственное использование водных ресурсов. Географические пояса и природные зоны. Влияние океанов, циркуляции атмосферы и орографии на расположение и структуру географических зон Вnekordильерского Востока. Комплексная характеристика географических зон арктического, субарктического, умеренного, субтропического, тропического и субэкваториального поясов. Структура современных ландшафтов. Кордильеры: общие особенности и региональные различия. Кордильеры Аляски. Кордильеры Канады. Кордильеры США. Мексиканское нагорье.

10-mavzu. Janubiy Amerikaning geografik o'rni, geologik tuzilishi, relyefi, foydali qazilmalari, iqlimi va ichki suvlari, tuproqlari, organik dunyosi.

Географик joylanishi, qiyofasi, o'lchamlari va tabiatining asosiy xususiyatlari, Shimoliy Amerika materigi bilan o'xshashligi va farqlari.

Shakllanish tarixi, relyefi va foydali qazilmalari. Janubiy Amerika platformasi, kaledon, gersin, mezozoy va alp burmalanish oblastlari. Sharqiy qismidagi yassi tog'lar va tekislik, pasttekisliklar. And burmalanish oblasti.

Iqlimi. Iqlimini hosil qiluvchi omillar. Atrofidagi okeanlarning iqlimga ta'siri. Iqlimning fasllar bo'yicha almashinishi. Iqlim mintaqalari va ularning ta'rifi. Ichki suvlari. Asosiy daryolari, ularning ta'rifi. Ko'llari. Suv resurslari.

Tuproq, o'simlik qoplamı va hayvonot dunyosining asosiy xususiyatlari. Zoogeografik oblastlari. Geografik mintaqalari va zonalari. Gileylar va gemigileylar. And tog'laridagi mintaqalar.

11-mavzu. Regional obzor. Janubiy Amerika tabiiy geografik rayonlari.

Yirik regional tabiiy geografik o'lkalari: And tog'lari, And tog'laridan tashqaridagi sharq. And tog'laridan tashqaridagi sharq quyidagi kichik tabiiy geografik o'lkalarga ajratiladi: Lyanos-Orinoko, Gviana yassi tog'ligi, Amazoniya, Braziliya yassi tog'ligi, Ichki tekisliklar. Kordilera oldi va Serra pampasi. And tog'lari quyidagi kichik o'lkalarga ajratiladi: SHimoliy And, Markaziy And, Subtropik And va Patagoniya And tog'lari. Ularning umumiy

tabiiy geografik tasnifi.

12-mavzu. Afrikaning geografik o'rni, geologik tuzilishi, relyefi, foydali qazilmalari, iqlimi, ichki suvlari, tuproqlari, organik dunyosi.

Materik geografik o'rning asosiy xususiyatlari. SHakllanish tarixi, relyefi va foydali qazilmalari. Afrika platformasi va uning relyefida aks etganligi. Baland va past Afrika. Shimoliy Afrika cho'llari. Buyuk Afrika yoriqlari. Paleozoy va Alp burmalanish oblastlari va ularning relyefida aks etishi. Rudali foydali qazilmalarning baland Afrikada, neft, gaz, fosforit konlarining past Afrikada joylashganligi.

Iqlimi. Iqlimini hosil qiluvchi asosiy omillar. Yoz va qish fasllari, harorat, namlik va yog'inning taqsimlanishi. Iqlim mintaqalarining takrorlanishi (ekvatorial mintaqadan tashqari). Faunistik oblastlari, hayvonot dunyosining o'ziga xos xususiyatlari. Tuproqlari va ularning hosil bo'lish jarayoni. Cho'llanish muammosi va uni echish yo'llari. Asosiy qo'riqxonalari. Geografik mintaqalari va tabiat zonalari, ularning tavsifi.

13-mavzu. Regional obzor. Afrika tabiiy geografik rayonlari.

Yirik regional tabiiy geografik o'lkalari: Past Afrika, Baland Afrika. Past Afrika quyidagi kichik tabiiy geografik o'lkalarga ajratiladi: Atlas tog'lari; Sahroi Kabir; Sudan-Gvineya; Kongo botig'i. Baland Afrika quyidagi kichik tabiiy geografik o'lkalarga ajratiladi: SHarqiy Afrika; Efiopiya-Somali; Janubiy Afrika. Ularning umumiy tabiiy geografik tasnifi.

14-mavzu. Avstraliya va Okeaniya. Umumiy obzor, tabiat zonalari. Tabiiy geografik regionlari.

Janubiy yarim sharda joylashganligi, o'lchamlari, o'ziga xos xususiyatlari. Tarkib topish tarixi, relyefi va foydali qazilmalari. Avstraliya platformasining tuzilishi va uni relyefida aks etganligi (g'arbiy Avstraliya yassi tog'ligi, Markaziy tekislik), paleozoy burmalanish mintaqasi (SHarqiy Avstraliya tog'lari). Hozirgi vaqtdagi relyefi hosil qiluvchi omillar. Rudali foydali qazilmalar, oltin mintaqasi, neft-gaz va ko'mir havzalari.

Iqlimi va ichki suvlari. Iqlimini hosil qiluvchi omillar. Namlik va yog'in taqsimlanishi. Iqlim mintaqalari. Daryolari. "Kriklar", sho'r ko'llar, er osti suvlari (arteziyan havzalari).

Okeaniya. Geografik joylanishi. Tabiatning asosiy xususiyatlari. Okean ta'siridagi landshaftlarning keng tarqalganligi. Geologik tuzilishi va relyefi. Mezozoy va kaynozoy burmalanish mintaqalari va janubi-g'arbiy Okeaniya orollarining hosil bo'lishi. Vulqonlar otilishi. Mikroneziya va Polineziya orollarining hosil bo'lishi. Tropik mintaqalarda okean sathining o'zgarishi va marjon orollarining hosil bo'lishi. Asosiy relyefi shakllari. Foydali qazilmalari.

Iqlimi va ichki suvlari. Havo massalari va ularning harakati, harorat, yog'inlar, tropik siklonlar. Daryolari va ularning asosiy xususiyati (kaltaligi, asosan yomg'irdan to'yinishi, sharshara va ostonalarning ko'pligi va h.k.).

Ko'llari, er osti suvlari.

Tuproq-o'simlik qoplamini va hayvonot dunyosi. Tuproqlarning, o'simliklarning asosiy turlari. Nam tropik mangra o'rmonlari, savannalari. Hayvonot dunyosining o'ziga xos xususiyatlari.

Geografik mintaqalari va tabiat zonalari. Regional tabiiy geografik o'lkalari: g'arbiy Avstraliya, Markaziy tekislik va SHarqiy Avstraliya tog'lari. YAngi Zelandiya: SHimoliy va Janubiy orollar. Ularga umumiy tabiiy geografik tavsifi.

Okeaniya. Tabiiy geografik o'lkalari: Melaneziya, Mikroneziya, Polineziya. Ularning umumiy tabiiy geografik tasnifi qabul qilingan tartibda amalga oshiriladi.

15-mavzu. Antarktidaning kashf etilishi va tadqiq etilishi, geologik tuzilishi, iqlimi, organik dunyosi.

Qutb doirasi ichida joylashgan yagona materik ekanligi. Tabiatining asosiy qirralari, o'lchamlari, shakllanish tarixi. Muz usti va osti relyefi. Muzning qalinligi, muzning turlari. SHelf muzliklari. "Vohalar". Iqlimining o'ziga xos xususiyatlari. O'simlik va hayvonot dunyosi. G'arbiy Antraktida, SHarqiy Antraktida. Ularning umumiy tabiiy geografik tasnifi.

II qism. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi

1-mavzu. Kirish. Regional tabiiy geografiyaning ob'ekti va predmeti.

O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi kursining maqsad va vazifalari, ob'ekti, predmeti, boshqa fanlar bilan aloqalari. Regional tabiiy geografiyaning geografik fanlar tizimidagi o'rni.

O'rta Osiyo tabiiy geografik o'lkasining geografik o'rni, maydoni va chegaralari. Yondosh tabiiy geografik o'lkalar, ularning O'rta Osiyo bilan aloqadorligi, tabiatining o'xshash tomonlari va tafovutlari. O'lka tabiatining o'ziga xos xususiyatlari.

2-mavzu. O'rta Osiyoni tabiiy geografik o'rganish bosqichlari, geologik taraqqiyot tarixi.

Ayrim olimlarning va yetakchi ilmiy maktablarning O'rta Osiyo tabiatini o'rganishga qo'shgan hissasi. O'rta Osiyoni tabiiy-geografik o'rganilganligini davrlar bo'yicha baholash.

O'rta Osiyo hududidagi asosiy tektonik strukturalar. O'rta Osiyo hududining geologik rivojlanish tarixi. Neogen-to'rtlamchi davrgacha bo'lgan geologik tarixiga qisqa tavsif. Paleozoy, mezozoy va kaynozoy davrlarining paleogeografik rivojlanish tarixi. Paleozoy, mezozoy va kanozoy davrlari cho'kindi, otqindi va metamorfik tog' jinslariga qisqa tavsif, ularning tarqalishi, yotqizili sharoitlari, qalinligi, litologik tarkibi. Foydali qazilma konlarining tarqalishi.

3-mavzu. Tektonikasi va seysmikligi.

O'rta Osiyo hududida bo'lib o'tgan asosiy tog' paydo bo'lish (burmalanish) bosqichlari (Kaledon, Gersin, Alp, yangi tektonik harakatlar). O'rta Osiyo hududining neogen-to'rtlamchi davrdagi geologik rivojlanish tarixi. Bu davrda sodir bo'lgan muhim paleogeografik voqealar va jarayonlar

(yangi tektonik harakatlar, iqlimning o'zgarishi, qadimgi muzliklarni vujudga kelishi, lyosslarning hosil bo'lishi, Kaspiy dengizining transgressiyalari, daryolar yo'nalishining o'zgarishi).

4-mavzu. O'rta Osiyo hududi Yer yuzasining tuzilishi: tog'lik va tekistlik qismi.

O'rta Osiyo hududi yer yuzasining xilma-xilligi va tabiiy geografik komponentlar bilan bog'liqligi. O'rta Osiyo relefining tarkib topishida yangi tektonik harakatlar, qadimgi va hozirgi zamon muzliklari, eol, erozion va boshqa denudatsion va akkumulyativ jarayonlarning ahamiyati.

O'rta Osiyoning tog'li qismidagi tog' tizmalari, tog' oraliq botiqlari, tekislangan yuzalar, ularning geografik joylanishi, dengiz sathidan balandlik muhim cho'qqilari. O'rta Osiyoning tog'li qismidagi asosiy balandlik relef mintaqalari va ularga xos relef shakllari (muzlik, erozion, denudatsion, gravitatsion, karst va boshqalar).

Markaziy Qozog'iston past tog'liklari, uning hududidagi tog' tizmalari, qirlar, denudatsion va akkumulyativ tekisliklar, melkosopochniklar. Turon tekisligi, uning hududidagi tog' tizmalari, qirlar, platolar, botiqlar, qum massivlari, tog' oldi prolyuvial tekisliklari, allyuvial tekisliklar va pasttekisliklar, dengiz pasttekisliklari, deltalar, taqirlar, sho'rxoklar, qadimgi daryo o'zanlari, karst relef shakllari va boshqalar. Ularning tarqalishi va hosil bo'lishi.

5-mavzu. O'rta Osiyo iqlimi. Iqlim o'zgarishi va iqlimiy resurslari.

O'rta Osiyo iqlimining umumiy tavsifi va iqlim hosil qiluvchi omillari: geografik o'rni va u bilan bog'liq quyosh radiatsiyasi, atmosfera sirkulyatsiyasi (havo massalarining turlari va ularning almashinib turishi), yer yuzasining tuzilishi va holati, inson xo'jalik faoliyatining ta'siri. Iqlim elementlarining hududiy va mavsumiy taqsimlanishi. Yillik, yanvar va iyul izotermalarining joylashish xususiyatlari va ularga tavsif berish. Yog'inlar va ularning hududiy taqsimlanish qonuniyatlari. Qor qoplami va erimay turish davrining hudud bo'ylab o'zgarib borishi. Mutlaq va nisbiy namliklar, ularning haroratga bog'liq ravishda o'zgarishi. Bug'lanish va mumkin bo'lgan bug'lanish. Shamollar va ularning yil fasllarida o'zgarishi.

O'rta Osiyo iqlimidagi tafovutlari. Iqlimiy va agroiklimiy rayonlashtirish. Iqlimning o'zgarishi. Iqlimga inson xo'jalik faoliyatining ta'siri. Iqlimni xo'jalik nuqtai-nazardan baholash. Iqlimiy resurslari.

6-mavzu. O'rta Osiyoning yer usti va yer osti suvlari.

O'rta Osiyo ichki suvlarining tabiatning boshqa komponentlariga (iqlimi, yer yuzasining tuzilishi va boshqalar) bog'liqligi va hududiy joylanish qonuniyatlari. Ichki suvlarining taqsimlanishiga inson xo'jalik faoliyatining ta'siri.

Daryolari, ularning mustaqil havzalarga ajralishi. Daryolarning zichligi va oqimi. Daryolar oqimining hududiy va mavsumiy o'zgarishi, daryo havzalari bo'yicha taqsimlanishi. Daryolarning to'yinishi va rejimi bo'yicha guruhlariga bo'linishi va ularning tasnifi. Daryolarning xo'jalikdagi ahamiyati. Daryolar suvini ifloslovchi manbalar va ularning muhofaza qilishga qaratilgan chora-

tadbirlar.

Ko'llari, ularning hudud bo'ylab taqsimlanishi, botiqlarining kelib chiqishi jihatidan guruhlariga (tektonik, to'g'on, muzlik, karst, antropogen) bo'linishi. Ko'llarning xo'jalikdagi ahamiyati va ularni muhofaza qilish. Kaspiy va Orol dengizi, Balxash ko'li, ularning muammolari.

Hozirgi zamon muzliklari, ularning hududiy tarqalishi. Atmosfera havosining ifloslanishi ta'sirida muzliklarning erish jarayonining tezlashuvi va uni oldini olish muammolari.

O'rta Osiyo hududida barpo etilgan suv omborlari va kanallari, ularning tabiatga ta'siri va xalq xo'jaligidagi ahamiyati. Kaspiy va Orol dengizlari muammolari.

Yer osti suvlari, ularning hosil bo'lishi va tarqalish qonuniyatlari. Yer osti suvlarining asosiy turlari (grunt, qatlamlararo, karst). Artezian havzalari, ularning tarqalishida hududning tektonik tuzilishining ahamiyati. Mineral va termal suvlari, ulardan foydalanish. Yer osti suvlaridan xalq xo'jaliklarining turli tarmoqlarida foydalanish va muhofaza qilish.

7-mavzu. O'rta Osiyoning tuproq qoplami.

O'rta Osiyo hududida tuproq qatlamining hosil bo'lishi va tarqalishining ona jins, iqlim, relef, yer osti suvlari, o'simliklari bilan bog'liqligi. Tuproqlarning gorizontaal, vertikal va introzonal tarqalishi, asosiy xususiyatlari. O'rta Osiyoning tekislik, tog' oldi va tog' qismlaridagi asosiy tuproq turlari va ularning tavsifi. Tuproqlarni muhofaza qilish chora-tadbirlari va oqilona foydalanish muammolari. Cho'l haqidagi ta'limotning yaratilishi va O'rta Osiyo cho'llarining zonal hamda litologik tiplari. Cho'llashish.

8-mavzu. O'rta Osiyoning o'simlik qoplami, endemik va dorivor o'simliklari.

O'rta Osiyo o'simliklarining xilma-xilligi. Ularning relef, iqlim, tuproq qoplami va boshqa tabiiy geografik komponentlariga bog'liq holda hududiy tarqalishi. O'simliklarning asosiy turlari, ularning gorizontaal, vertikal va introzonal tarqalishi. Dasht, chala cho'l, cho'l o'simliklari.

O'rta Osiyoning endemik va dorivor o'simliklari. O'simlik boyliklari, ularning inson xo'jalik faoliyati ta'sirida o'zgarishi. O'simlik boyliklaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilish.

9-mavzu. O'rta Osiyoning hayvonot dunyosi.

O'rta Osiyo hayvonot dunyosining xilma-xilligi va hayvonlarning hudud tabiiy sharoitiga moslashuvi. Hayvonlarning asosiy turlari va ularning tabiat komponentlariga (relef, iqlim, substrat va boshqalar) bog'liq holda gorizontaal, vertikal va introzonallik bo'yicha o'zgarishi. Hayvonlarga inson ta'siri. Hayvonlarning xo'jalikdagi ahamiyati va ularni muhofaza qilish.

10-mavzu. O'rta Osiyoning maxsus muhofaza qilinadigan hududlari.

O'rta Osiyo tabiatini muhofaza qilishda qo'riqxonalar, milliy bog'lari va

buyurtmaxonalar, jamoat tashkilotlari, ekologik ta'lim va tarbiyaning ahamiyati. O'rta Osiyo hududida barpo etilgan qo'riqxonalar, milliy bog'lari, buyurtmaxonalar, ularning turlari, ularda olib borilayotgan ilmiy va muhofaza ishlari.

11-mavzu. O'rta Osiyoni tabiiy geografik rayonlashtirish.

O'rta Osiyoning tabiiy geografik rayonlashtirish tajribalari tahlili. O'rta Osiyoni tabiiy geografik rayonlashtirish tamoyillari va taksonomik birliklari (provinsiya, kichik provinsiya, okrug, rayon).

12-mavzu. Markaziy Qozog'iston provinsiyasi.

Geografik o'rni, chegaralari, maydoni. Geologik tarixi. Tektonikasi va u bilan hozirgi orografik tuzilishining bog'liqligi. Paleogeografiya. Oroografiya. Geomorfologik tuzilishi. Iqlimining xususiyatlari. Daryolari, ko'llari, botqoqliklari, grunt suvlari. Kanallari, suv omborlari. O'simlik qoplami. Tuproqlari. Hayvonot dunyosi.

13-mavzu. Markaziy Qozog'iston provinsiyasi okruglari.

Provinsiyada ajratilgan tabiiy-geografik okruglarga (Qozog'iston past tog'lari okrug, To'rg'ay supasimon o'lkas, Orol okrug, Orolbo'yi qumli cho'llari. Betpakdala. Ustyurt) tabiiy geografik tavsif.

14-mavzu. Jung'oriya-Tyanshan provinsiyasi va okruglari.

Geografik o'rni, chegaralari, maydoni. Geologik tarixi. Tektonikasi va u bilan hozirgi orografik tuzilishining bog'liqligi. Paleogeografiya. Oroografiya. Geomorfologik tuzilishi. Iqlimining xususiyatlari. Daryolari, ko'llari, botqoqliklari, grunt suvlari. Kanallari, suv omborlari. O'simlik qoplami. Tuproqlari. Hayvonot dunyosi.

Junjoriya-Tyanshan provinsiyasida ajratilgan tekislik kichik provinsiya tarkibidagi Balxashbo'yi-Muyunqum okrugiga, tog'lik kichik provinsiyasidagi Shimoliy Tyanshan, Markaziy Tyanshan, Sharqiy Qozog'iston tog'li okrugiga tavsif.

15-mavzu. Turon provinsiyasi va okruglari.

Geografik o'rni, chegaralari, maydoni. Geologik tarixi. Tektonikasi va u bilan hozirgi orografik tuzilishining bog'liqligi. Paleogeografiya. Oroografiya. Geomorfologik tuzilishi. Iqlimining xususiyatlari. Daryolari, ko'llari, botqoqliklari, grunt suvlari. Kanallari, suv omborlari. O'simlik qoplami. Tuproqlari. Hayvonot dunyosi.

Turon provinsiyasida ajratilgan tekislik kichik provinsiya tarkibidagi O'zbekiston, Shimoliy Qoraqum, Quyi Amudaryo, Qizilqum, Quyi Zarafshon, G'arbiy Turkiston, Markaziy Qoraqum, Tajan-Murg'ob okruglariga; tog'li kichik provinsiyasida ajratilgan Farg'ona, Janubiy yosh tog'lar, Yuqori Zarafshon, Yuqori Amudaryo, Qashqadaryo, O'rta Sirdaryo, Pomir okruglariga tavsif.

II. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

I qism. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi:

1. Yer yuzasining rivojlanishi va shakllanishi. Yer va sayyoralarining kelib chiqishi haqidagi taxminlar (gipotezalar)ni tahlil qilish
2. Iqlim mintaqalari va tabiat zonalar xaritasini ishlash.
3. Dunyo okeanining gidrologik xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish.
4. Yevrosiyo tabiiy xaritasini ishlash, daryolari va ko'llari jadvalini ishlash.
5. Yevrosiyo iqlim mintaqalari va tabiat zonalar xaritalarini ishlash.
6. Shimoliy Amerikaning tabiiy kartasini chizish
7. Shimoliy Amerika iqlim kartasini chizish, daryolari va ko'llari jadvalini ishlash
8. Shimoliy Amerikaning tabiat zonalar xaritasini chizish.
9. Janubiy Amerika tabiiy kartasini ishlash.
10. Janubiy Amerika iqlim kartasini chizish, daryolari va ko'llari jadvalini ishlash
11. Janubiy Amerikaning tabiat zonalar xaritasini chizish.
12. Afrikaning tabiiy xaritasi va tabiat zonalar xaritasini chizish.
13. Afrikaning iqlim kartasini chizish, daryolari va ko'llari jadvalini ishlash
14. Avstraliya va Okeaniyaning yirik foydali qazilmalar xaritasini ishlash.
15. Antarktidaning iqlim xaritasini ishlash.

II qism. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi:

1. Yozuvsiz xaritaga O'rta Osiyo o'lkasini chegarasini tushirish. O'lkaning chekka nuqtalarini aniqlab, ularning koordinatlarini yozish, ular orasidagi masofani o'lchash. O'rta Osiyo tabiatini o'rganishga hissa qo'shgan olimlar haqida prezentatsiya tayyorlash
2. O'rta Osiyoning tektonik xaritasini chizish va uning tahlili
3. O'rta Osiyoning orografik sxemasini tayyorlash
4. O'rta Osiyoning tog' tizmalarini, cho'llarini, tog' oraliq va tekislik botiqlarini, plato, qirlarini orografik xaritada aks ettirish
5. Yozuvsiz xaritada O'rta Osiyo iqlimini aks ettirish
6. Daryo havzalari xaritasini ishlash, daryolari jadvalini ishlash
7. O'rta Osiyo ko'llari, muzliklari va suv omborlari jadvalini ishlash
8. O'rta Osiyo muzliklari va suv omborlari jadvalini ishlash
9. Yozuvsiz xaritada o'lka daryolarini, ko'llarini, suv omborlarini, kanallarini, muzliklarini belgilash, ularning nomini yozish, daryolarining havzalarini aniqlab chegaralarini tushirish
10. O'rta Osiyoda tarqalgan asosiy tuproq turlarini jadvalda aks ettirish
11. O'rta Osiyoning o'simlik xaritasini tahlil etish va dorivor o'simliklar haqida ma'lumot to'plash
12. O'rta Osiyoda "Qizil kitob"ga kiritilgan hayvonot turlarini o'rganish va jadvalda aks ettirish. Qo'riqxonalar xaritasi va jadvalini ishlash
13. Yozuvsiz xaritada O'rta Osiyoning tabiiy-geografik rayonlashtirish sxemasini chizish
14. Markaziy Qozog'iston provinsiyasi tabiiy geografik komponentlari jadvalini ishlash

15. Jung'oriya-Tyanshan va Turon provinsiyasi tabiiy geografik komponentlari jadvalini ishlash

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

I qism. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi

1. Tinch okeanining o'rganilish tarixi.
2. Hind okeanining o'rganilish tarixi
3. Dunyo okeani tubi relyefi gipsometrik profilining tahlili.
4. Dunyo okeanining zonalligi.
5. Har bir okeanning gidrografik xususiyatlari jadvalini tuzish.
6. Dunyo okeani resurslari.
7. Xorijiy adabiyotlarda va qabul qilingan darsliklardagi Yevropani tabiiy geografik sxemalarining qiyosiy tahlili.
8. Shimoliy materiklarning qirg'oq tiplari.
9. Shimoliy materiklarning daryo rejimi tiplari, o'xshashlik va farqlari.
10. Yevropaning alohida muhofaza etiladigan hududlari.
11. Yevrosiyo materi gi asosiy shaharlari iqlimining xususiyatlarini ko'rsatuvchi jadvallar tuzish.
12. Sharqiy Yevropa tekisligi.
13. Ural tog'li o'lkasiga tabiiy geografik tavsif berish.
14. Kavkaz tog'li o'lkasigatabiiy geografik tavsif berish.
15. G'arbiy Sibir pasttekisligi o'lkasiga tabiiy geografik tavsif berish.
16. Sayan-Altay tog'li o'lkasiga tabiiy geografik tavsif berish.
17. O'rta Sibir o'lkasigatabiiy geografik tavsif berish.
18. Baykal tog'li o'lkasiga tabiiy geografik tavsif berish.
19. Uzoq Sharq.
20. Osiyo landshaftlarining differentsiatsiyasi.
21. Hindiqush va Qoraqurum tog'lari.
22. Osiyo cho'llari va ularga qiyosiy tahlil.
23. Osiyoning muhofaza etiladigan hududlari.
24. Shri-Lanka orolining tabiiy gegografik tavsifi.
25. Yevrosiyo har bir tabiiy geografik o'lkasining umumiy ta'rifi.
26. SHimoliy Amerikaning tabiiy, iqlim, tabiat zonolari, tuproq kartalari asosida kompleks ta'rif berish.
27. SHimoliy Amerika, Janubiy Amerika materiklarining tabiiy, iqlim, iqlim mintaqalari va tabiat zonolari kartalarini tahlil qilish
28. SHimoliy Amerikaning buyuk ko'llari.
29. SHimoliy Amerika cho'llari.
30. SHimoliy Amerikaning tabiiy geografik o'lkalariga qiyosiy tavsif.
31. Florida va Kaliforniya yarim orollariga qiyosiy tavsif.
32. Shimoliy Amerikada inson va tabiat munosabatlari
33. Amazoniya tabiatining asosiy xususiyatlari va ekologik muammolari
34. Atakama cho'liga tabiiy geografik tavsif.

35. Patagoniyaning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati

36. Afrikaning tabiiy, iqlim, iqlim mintaqalari va tabiat zonolari kartalarini tahlil qilish.

37. Afrika ichki rayonlarining tadqiqot tarixi.

38. Xorijiy adabiyotlarda va qabul qilingan darsliklardagi Afrikani tabiiy geografik sxemalarining qiyosiy tahlili.

39. Asosiy shaharlar iqlimiy ko'rsatkichlari grafigini tuzish.

40. Nam ekvatorial o'rmonlarning ekologik holati.

41. Afrika tropik cho'llarning qiyosiy tahlili.

42. Avstraliyaning tabiiy, iqlim, iqlim mintaqalari va tabiat zonolari kartalarini tahlil qilish.

43. Avstraliyaning relik landshaftlari.

44. Avstraliyaning endemik o'simlik va hayvonot olami.

45. Antarktida tabiatining Yer shari iqlimiga ta'siri.

II qism. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi

1. O'rta Osiyoning geografik o'rmini G'arbiy Yevropadagi va Sharqiy Osiyodagi shu kenglikda yotgan tabiiy - geografik o'lkalar bilan solishtirish va xulosalarni amaliyot daftariga yozish.

2. Muayyan yo'nalish bo'yicha gipsometrik kesma chizish.

3. O'lkada hududini qoplagan yotqiziqalar jadvalini tuzish.

4. Jadvalda O'rta Osiyo o'lkasidagi tog' tizmalarining qaysi tog'burmalanishiga mansubligini aks ettirish.

5. Amudaryo va Sirdaryoning gidrografini tuzish.

6. Jadvallarda O'rta Osiyo daryolari, ko'llari, suv omborlarini tavsiflovchi ma'lumotlarni berish.

7. Orol muammosi haqida qo'shimcha ma'lumot to'plash.

8. Jadvalda kenglik va balandlik mintaqalariga tavsif berish. Ularda tarqalgan tuproq tiplarini va hayvonot dunyosini alohida ko'rsatish

9. O'lkaning biron-bir yo'nalishi bo'yicha kompleks kesma tayyorlash.

10. O'rta Osiyo hududidagi tabiat yodgorliklari.

11. O'rta Osiyoning tog'li qismidagi dorivor o'simliklari.

12. O'rta Osiyoning tekislik qismidagi dorivor o'simliklari.

13. O'rta Osiyodagi sho'rxoklar.

14. O'rta Osiyoning tekislik qismidagi osti dengiz sathidan pastda bo'lgan botiqlari.

15. O'rta Osiyodagi Qoratovlarga tabiiy geografik tavsif.

16. O'rta Osiyoning iqlimiy resurslari.

17. O'rta Osiyoda qadimgi muzlik davrlari.

18. O'rta Osiyoning hozirgi zamon muzliklari.

19. O'rta Osiyodagi avtomorf tuproqlar.

20. O'rta Osiyoning endemik o'simliklari.

21. O'rta Osiyoning endemik hayvonlari.

22. O'rta Osiyoda cho'llashish jarayoni.

23. Hisor tizmasiga tabiiy geografik tavsif.

24. Qorabel-Badxiz okrugiga tabiiy geografik tavsif.
25. Vaxsh okrugiga tabiiy geografik tavsif.
26. Sariqamish botig'i va Uzboyga tabiiy geografik tavsif.
27. Kaspiy dengizi sohili okrugiga tabiiy geografik tavsif.
28. Ili tog' oraliq botig'i.
29. Issiqko'l tog' oraliqbotig'i.
30. Zaysan tog' oraliq botig'i.
31. Mo'yinqumga tabiiy geografik tavsif.
32. Orol dengizining qurigan qismiga tabiiy geografik tavsif.
33. O'rta Osiyodagi to'g'on ko'llar.
34. O'rta Osiyodagi tektonik ko'llar.
35. O'rta Osiyoning muzlik-morena ko'llari.
36. O'rta Osiyoning karst ko'llari.
37. O'rta Osiyoning diqqatga sazovor joylari.
38. O'rta Osiyodagi tabiat yodgorliklari.
39. Zarafshon va karst jarayonlari.
40. O'rta Osiyo foydali qazilmalari.
41. O'rta Osiyo hududida kuzatiladigan shamollar.
42. O'rta Osiyoda zilzila jarayoni.
43. O'rta Osiyoning neogen-to'rtlamchi davr geologik tarixi.
44. Pomir tog'laridagi ko'llar.
45. Tyanshan tog'laridagi ko'llar.

V. Kurs ishlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Kurs ishining maqsadi talabalarni mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan nazariy bilimlarini qo'llashda amaliy ko'nikmalar hosil qilish va bunda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishdir. Kurs ishining mavzulari umumiy talabalar sonidan 20-30 % ko'proq va oldindan tayyorlanadi.

I qism. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi

Kurs ishi uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Yevrosiyo materigining geografik o'rni geologik tuzulishi va relyefi.
2. Tinch okeanining o'rganilish tarixi.
3. Hind okeanining o'rganilish tarixi
4. Yevrosiyo har bir tabiiy geografik o'lkasining umumiy ta'rifi.
5. Atlantika okeanining o'rganilish tarixi.
6. Shimoliy Muz okeanining o'rganilish tarixi
7. Shimoliy Amerikaning buyuk ko'llari.
8. Shimoliy Amerika cho'llari.
9. Shimoliy Amerikaning tabiiy geografik o'lkalariga qiyosiy tavsif.
10. Afrika materigining geografik o'rni.
11. Avstraliya va Okeaniya
12. Antarktida materigining geografik o'rni
13. Afrikaning materigining iqlimi, iqlim mintaqalari va tabiat zonalari.

14. Janubiy Amerika materigi.

15. Amazoniya tabiatining asosiy xususiyatlari va ekologik muammolari

II qism. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi

Kurs ishi uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'rta Osiyoning shimoli-sharqidagi tizmalarga tabiiy geografik tavsif.
2. O'rta Osiyoning iqlimiy resurslari.
3. Hisor tizmasiga tabiiy geografik tavsif.
4. O'rta Osiyoning tekislik hududidagi ko'llar.
5. O'rta Osiyoning tog'laridagi ko'llar.
6. O'rta Osiyoning tog' oraliq botiqlari.
7. O'rta Osiyo tog'lari faunasi.
8. Markaziy Qozog'istonga tabiiy geografik tavsif.
9. To'rg'ay platosiga tabiiy geografik tavsif.
10. Ustyurt platosiga tabiiy geografik tavsif.
11. Qoraqum cho'llariga tabiiy geografik tavsif.
12. O'rta Osiyoda suv va suv resurslaridan foydalanish.
13. Orol va Orolbo'yi muammolari
14. O'rta Osiyo tekislik va tog'laridagi yirik qo'riqxonalar.
15. O'rta Osiyoning yirik suv omborlari.

3. V Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

yer sayyorasi va uning Quyosh sistemasida tutgan o'rni; geografik qobiqning tuzilishi, tarkibi, chegaralari va rivojlanish xususiyatlari; Erning geosferalari; Erda Quyosh radiatsiyasining taqsimlanishi: radiatsiya va issiqlik balansi; Er yuzasining iqlimi va iqlim mintaqalari, tabiat zonalarining hosil bo'lishi; materik va okeanlarning tabiiy geografik xususiyatlari; jahon mintaqalari va alohida mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimotida tutgan o'rni, aholi soni, aholisining tabiiy va mexanik harakati, urbanizatsiyasining tavsifi, xo'jaligining tarmoqlar tarkibi; O'rta Osiyo tabiiy geografik o'lkasi va geosiyosiy mintaqasining tabiati, aholisi, xo'jalik tizimi haqida *bilim va tasavvurga ega bo'lishi*;

tegishli tabiiy geografik ob'ekt (materik, yarim orol, orol, tog', tekislik, daryo, ko'l, tabiiy geografik rayon, okean, dengiz, bo'g'iz)larning geografik o'rnini ko'rsatib berish; havo massalarining xususiyatlarini, er yuzida yog'inlarni notekis taqsimlanishi sabablarini tahlil qilish; ayrim foydali qazilmalar konlarining joylashishini ko'rsata olish; ering iqlim mintaqalari va tabiat zonalarini bir-biridan farqlay olish; ayrim hududlar iqlimidagi tafovutlarni tahlil qilib berish; turli ma'lumotlar asosida tabiiy geografik ob'ektlarni, jarayon va hodisalarni tahlil qilish, baholash; jahon mamlakatlarini tasniflash va guruhlash; jahon mamlakatlari va mintaqalarining, xususan O'rta Osiyo mintaqasi tabiiy va iqtisodiy geografik o'rnini aniqlash, ijtimoiy-iqtisodiy,

	geosiyosiy rivojlanish muammolarini aniqlash; jahon va O'rta Osiyoning tabiiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy kartalarini loyihalash va tuzish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>; dunyo okeani, materiklar va ularning qismlarini, iqlim mintaqalari va tabiat zonalari, atmosfera havosining doimiy va mavsumiy harakatlari, past va yuqori bosim markazlarini; okean va quruqlikdagi geografik mintaqalar, ularning o'zaro o'xshashligi va tafovutlarini, kelib chiqish sabablarini aniqlash; tarixiy va geografik taqqoslash tadqiqot metodlaridan foydalangan holda mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini qiyosiy tahlil qilish, ular rivojlanishining iqtisodiy-ijtimoiy geografik muammolarini hal etish yo'llarini topish; O'rta Osiyo o'lkasining tabiiy geografik tafovutlari, tabiiy iqlimiy, mineral-xom ashyo, demografik salohiyati va imkoniyatlarini xo'jalik nuqtai nazardan baholay olish, rivojlanish muammolarini, ularning sabab-oqibatlarini aniqlash, tegishli xulosalar chiqara olish malakalariga <i>ega bo'lishi lozim</i>.
4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:	- ma'ruzalar; - interfaol metodlar; - guruhlarda ishlash; - taqdimotlarni qilish; - individual loyihalar; - jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5. VII. Kreditlarni olish uchun talablar:	Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishlarni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar - Алексеева Н.Н., Климанова О.А. Физическая география материков. Региональный обзор. Географический факультет МГУ, Издательство "ВАРСОН" Москва, 2015. 144 с - Баратов П., Маматкулов М., Рафиков А. Ўрта Осиё табиий географияси. -Т.: Ўқитувчи, 2002. - Власова Т.В. Материклар ва океанлар табиий географияси. -Т.: 1985, I, II жидд. - Каюмов А., Пардаев Г, Исломов И. Иктисодий ва ижтимоий география. (Ўрта Осиё иктисодий ва ижтимоий географияси. Ўқув қўлланма). -Т., 2007. - Родионова, И. А.Экономическая и социальная география мира. В 2 т. Т. 1,2 : учебник для бакалавров. 2-е изд., испр. и доп. - М.: Издательство Юрайт, 2015.-431 с. - Социально-экономическая география зарубежного мира. под ред. В.В.Вольского. -М., 2003.

- Экономическая и социальная география стран ближнего зарубежья. Под ред. М.Патанова. -М., 2004.
- Ishmuxamedov A.E., Sunnatov M.N., Shibarshova L.I. Jahon iqtisodiyotiga integratsiya T-2004
- Salimov B.T. va b. Jahon qishloq xo'jiligi T-2004
- Toshov X.R., Allayorov I.Sh. Avstraliya ittifoqi geografiyasi B-2011
- Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar "Yangi nashr" T-2015
- Toshev X.R., Mavlonov A.M., Qodirov A.A., Ne'matov A.N. Jahon geografiyasi B-2015
- Koppenshtayner Y. Avstriya "Cho'lpon" T-2014
- Abidov A.A., Raxmatova S.A., Abidov X.A. Dunyo ne'ftgazli hududlari va akvatoriyalari "Fan va texnologiya" T-2015

Qo'shimcha adabiyotlar

- Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга курашимиз. - Тошкент: "Ўзбекистон", 2017. - 488 б.
- Bradschaw M. World regional geography. Boston. 2000.
- Ibragimova R.A., Ibraimova A.A. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasidan amaliy mashg'ulotlar. Uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2017. - 68 b.
- Tashtayeva S, Egamberdiyeva M, Komilova N, Egamberdiyeva U. Geografiya. Oquv qollanma.-T.:Universitet, 2017
- Абдикулов К. Иктисодий география. -Т., 2004.
- Бабаев А. Г., Зонн И.С. и др. Пустыни. -М.: Мысль. 1986.
- Бабушкин Л.Н. Когай Н.А. Физическая география Средней Азии. Учебное пособие. -Т.: ТашГУ, 1978.
- Бабушкин Л.Н., Когай Н.А. Физико-географическое районирование Средней Азии.(Таджикистан). Научные труды ТашГУ. Вып.307.-Т., 1967.
- Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. -Т.: Ўқитувчи, 1996.
- Болтаев М.Ж. Чет мамлакатлар иктисодий географияси. Маърузалар матни. -Т., 2000.
- Власова Т.В. Физическая география материков и океанов. -М.: Просвещение, 1986.
- Двадцать лет разделенного единства.- Смоленск. Ойкумена, 2012.
- Когай Н.А. Физическая география Средней Азии. Учебное пособие. -Т.: ТашГУ, 1979.
- Копылов В.А. География промышленности России и стран СНГ. -М., 2001.
- Липец Ю. Г. Пуляркин В. А., Шлихтер С. Б. География мирового хозяйства. -М., 1999.
- Ломакин В.К. Мировая экономика: Учебник для вузов.-2-е изд., перераб. и доп. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2002. - 735 с.
- Лучников А.С.Экономическая и социальная география России и мира. Политическая карта мира: учебное пособие.-Пермь, 2015.-164 с.
- Мавлонов Ф.О., Маматкулов М.М. Ўрта Осиё тоғларининг қадимги

музликлари “Фан”. Тошкент, 1972.

19. Максаковский В.П. Географическая картина мира Кн. I, II: Общая характеристика мира. М.: Дрофа, 2008, - 495 с

20. Малый атлас мира. М., 2000.

21. Маматкулов М. Ўрта Осиё геоморфологияси. —Т.: Университет, 2008.

22. Никитин А.М. Водохранилища Средней Азии.-Л.: Гидрометиздат, 1991.

23. Притула Т.Ю., Ерёмина В.А., Спрялин А.Н. Физическая география материков и океанов. —М.: ВЛАДОС, 2003, с. 685

24. Умумтаълим 7,9-синф ва ўқув-ўлкашунослик атласлари.

25. Физическая география мирового океанов. -М.: Изд-во МГУ, 1998.

26. Хасанов И., Гуломов П. Ўрта Осиё табиий географияси. —Т.: Университет, 2002.

Ахборот манбалари

27. <https://population.un.org/wpp/dataquery/>.

28. www.unep.org- (БМТнинг атроф-мухит бўйича дастури).

29. www.undp.uz (БМТ Тараққиёт Дастури Веб-сайти).

30. www.undp.uz

31. www.uzgeo.uz

7. Buxoro davlat universitetining 2024 yil “___” ___dagi ___ - sonli buyrug‘i bilan ma’qullangan va fan dasturlar tasdiqlangan

8. Fan/modul uchun mas’ul:

I.E. Mirzayeva - “Ekologiya va geografiya” kafedrasi o‘qituvchisi

9. Taqrizchilar:

H.T. To‘xtayeva-TIQXMMI Buxoro filiali, “Gidrologiya va ekologiya” kafedrasi mudiri, geografiya fanlari nomzodi(turdosh OTM)

G.Halimova - BuxDU, “Ekologiya va geografiya” kafedrasi dotsenti, geografiya fanlari nomzodi, dotsent.